bunda u_r va v_i — mos ravishda chiqim va kirmnlarning vazn koeffitsientlari bo'lib, ular barcha DMU lar uchun ushbu nisbat birdan oshmasligi sharti asosida har bir birlik uchun eng qulay tarzda tanlanadi. Ushbu kasrli masala Charnes–Kuper almashtiruv yordamida chiziqli dasturlash masalasiga keltiriladi. Amaliy hisob-kitoblarda ko'pincha unga ikkilanma bo'lgan qobiq (envelopment) shaklidan foydalaniladi. Kirim-yo'naltirilgan CCR modelining qobiq shakli quyidagicha yoziladi:

$$\begin{aligned} \min \theta, \\ \sum_j \lambda_j x_{ij} &\leq \theta x_{i0}, \quad i = 1, \dots, m; \\ \sum_j \lambda_j y_{rj} &\geq y_{r0}, \quad r = 1, \dots, s; \\ \lambda_j &\geq 0, \quad j = 1, \dots, n, \end{aligned} \quad (2)$$

bunda θ — baholanayotgan tumanning texnik samaradorlik koeffitsienti ($0 < \theta \leq 1$); λ_j — etalon (tayanch) birliklarning intensivlik koeffitsientlari. Agar $\theta = 1$ bo'lsa va barcha qo'shimcha o'zgaruvchilar (slack) nolga teng bo'lsa, tuman samaradorlik chegarasida joylashgan hisoblanadi. $\theta < 1$ bo'lganda $(1 - \theta) \cdot 100$ foiz miqdori tuman barcha kirmnlarni mahsulot hajmini kamaytirmasdan proporsional qisqartirishi mumkin bo'lgan zaxirani ko'rsatadi.

CCR modeli masshtabga nisbatan o'zgarmas qaytim faraziga tayanadi, ya'ni barcha tumanlar optimal faoliyat ko'lamida ishlayapti deb hisoblanadi. Ammo agrar sohada bu faraz har doim ham bajarilmaydi: kichik tumanlar hali optimal ko'lamma yetmagan, yirik tumanlar esa undan oshib ketgan bo'lishi mumkin. Benker, Charnes va Kuper tomonidan taklif etilgan BCC modeli (2) masalaga qavariqlik shartini qo'shish orqali masshtabga nisbatan o'zgaruvchan qaytimni hisobga oladi [3]:

$$\sum_j \lambda_j = 1. \quad (3)$$



BCC modeli orqali hisoblangan koeffitsient sof texnik samaradorlik (θ_{BCC}) deb ataladi va u faqat boshqaruv hamda texnologik omillar bilan bog'liq samarasizlikni aks ettiradi. CCR va BCC baholari nisbati masshtab samaradorligini (Scale Efficiency – SE) beradi:

$$SE = \theta_{CCR} / \theta_{BCC}. \quad (4)$$

SE = 1 bo'lsa, tuman optimal faoliyat ko'lamida ishlayotgan bo'ladi; SE < 1 bo'lsa, samarasizlikning bir qismi faoliyat ko'lamining nomutanosibli bilan izohlanadi. Masshtabga nisbatan qaytim turi CCR masalasidagi intensivlik koeffitsientlari yig'indisi ($\Sigma\lambda_j$) orqali aniqlanadi: $\Sigma\lambda_j < 1$ bo'lsa, tuman masshtabga nisbatan o'suvchi qaytim (IRS) zonasida, $\Sigma\lambda_j > 1$ bo'lsa, kamayuvchi qaytim (DRS) zonasida, $\Sigma\lambda_j = 1$ bo'lsa, o'zgarmas qaytim (CRS) zonasida faoliyat yuritadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Modelni shakllantirishda chiqim ko'rsatkichlari sifatida tadbirkorlikda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (Y_1 , mlrd so'm) hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hajmi (Y_2 , mlrd so'm) olindi. Kirim ko'rsatkichlari sifatida qishloq xo'jaligiga sarflangan investitsiyalar (X_1 , mlrd so'm), bir million so'mlik qishloq xo'jaligi mahsuloti yaratish uchun sarflangan energiya (X_2 , ming kVt-soat) va qishloq xo'jaligida bandlar soni (X_3 , ming kishi) tanlandi. Tanlanma hajmi $n = 14$ bo'lib, DEA uslubiya qabul qilingan empirik qoidaga (DMUlar soni kirim va chiqimlar ko'paytmasidan hamda ularning yig'indisining uch baravaridan kam bo'lmasligi kerak) muvofiq keladi: $14 \geq \max\{3 \times 2; 3 \cdot (3+2)\}$ sharti chegaraviy darajada qanoatlaniriladi. Bu esa modelning ajratish qobiliyatini ta'minlash uchun yetarli hisoblanadi.

1-jadval
Qashqadaryo viloyati tumanlari bo'yicha dastlabki ma'lumotlar¹

Tumanlar (DMU)	Tadbirkorlikda q/x mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm (Y_1)	Qayta ishlash hajmi, mlrd so'm (Y_2)	Q/x ga sarflangan investitsiyalar, mlrd so'm (X_1)	1 mln so'mlik mahsulotga sarflangan energiya, ming kVt-soat (X_2)	Q/xd bandlar soni, ming kishi (X_3)
G'uzor	3247,8	144,08	335,0	0,132	22,9
Dehqonobod	2135,0	49,11	389,0	0,082	17,4
Qamashi	4572,3	190,80	477,0	0,094	30,3
Qarshi	3834,8	159,30	312,0	0,068	23,6
Koson	5108,1	210,43	345,0	0,092	20,1
Kitob	4102,3	185,52	143,0	0,094	23,9
Mirishkor	3510,1	157,68	495,0	0,038	10,9
Muborak	2505,9	103,31	337,0	0,019	2,6
Nishon	3451,4	103,07	298,0	0,026	9,2
Kasbi	4255,8	128,76	365,0	0,000	17,6
Ko'kdala	2755,0	137,84	456,0	0,027	21,4
Chiroqchi	3340,3	107,79	695,0	0,031	26,0
Shahrisabz	2957,0	139,51	369,0	0,026	23,9
Yakkabog'	3446,0	111,33	365,0	0,026	25,7

Kasbi tumanida energiya sarfi ko'rsatkichi hisobotlarda nol qiymatga ega bo'lganligi sababli, chiziqli dasturlash masalasining yechiluvchanligini ta'minlash maqsadida u juda kichik musbat son ($\epsilon = 0,001$) bilan almashtirildi. Mazkur yondashuv DEA amaliyotida keng qo'llaniladi. Hisob-kitoblar har bir tuman uchun (2) va (3)-chiziqli dasturlash masalalarini ketma-ket yechish orqali amalga oshirildi. Tadqiqotda foydalanilgan dastlabki ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlari tumanlar o'rtasida resurslar bilan ta'minlanganlik hamda natijaviy ko'rsatkichlar bo'yicha muayyan tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi Dehqonobod tumanidagi **2135,0 mlrd so'm**dan Koson tumanidagi **5108,1 mlrd so'm**gacha, ya'ni **2,4 baravar** farqlanadi. Investitsiyalar hajmi Kitob tumanida **143,0 mlrd so'm**ni, Chiroqchi tumanida esa **695,0 mlrd so'm**ni tashkil etib, ular o'rtasidagi farq **4,9 baravarni** tashkil qiladi. Energiya sig'imi ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori qiymat G'uzor tumanida (**0,132 ming kVt-soat**) kuzatilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida bandlar soni Muborak tumanidagi **2,6 ming kishidan**

1 Manba: Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Qamashi tumanidagi **30,3 ming kishigacha** o'zgaradi. Mazkur heterogenlik sharoitida alohida unumdorlik ko'rsatkichlarini emas, balki barcha omillarni kompleks tarzda hisobga oluvchi DEA uslubiyati hududiy qiyosiy baholashning samarali va ilmiy asoslangan vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Har bir tuman uchun kirmga yo'naltirilgan CCR va BCC masalalarini yechish natijasida olingan texnik samaradorlik, sof texnik samaradorlik hamda masshtab samaradorligi ko'rsatkichlari 2-jadvalda jamlangan.

2-jadval
CCR va BCC modellari bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlari²

Tumanlar	Texnik samaradorlik (CCR)	Sof texnik samaradorlik (BCC)	Masshtab samaradorligi (SE)	$\Sigma\lambda_j$	Masshtab qaytimi	O'rin (CCR bo'yicha)
G'uzor	0,629	0,664	0,948	0,948	IRS	11
Dehqonobod	0,412	0,659	0,625	0,597	IRS	14
Qamashi	0,685	0,746	0,918	1,292	DRS	10
Qarshi	0,805	0,808	0,995	1,032	DRS	7
Koson	1,000	1,000	1,000	1,000	CRS	1-5
Kitob	1,000	1,000	1,000	1,000	CRS	1-5
Mirishkor	0,880	1,000	0,880	1,361	DRS	6
Muborak	1,000	1,000	1,000	1,000	CRS	1-5
Nishon	1,000	1,000	1,000	1,000	CRS	1-5
Kasbi	1,000	1,000	1,000	1,000	CRS	1-5
Ko'kdala	0,745	0,751	0,992	1,046	DRS	9
Chiroqchi	0,436	0,474	0,918	0,910	IRS	13
Shahrisabz	0,839	0,851	0,986	0,985	IRS	8
Yakkabog'	0,702	0,848	0,829	0,817	IRS	12
O'rtacha	0,795	0,843	0,935	—	—	—

Tahlil natijalariga ko'ra, viloyat tumanlari bo'yicha o'rtacha texnik samaradorlik **CCR** modeli bo'yicha **0,795** ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki, agar barcha tumanlar o'z guruhidagi ilg'or hududlar darajasida faoliyat yuritganida, mavjud mahsulot hajmini saqlab qolgan holda sarflanayotgan resurslarni o'rtacha **20,5 foizga** qisqartirish imkoniyati mavjud bo'lar edi. **BCC** modeli bo'yicha o'rtacha sof texnik samaradorlik **0,843** ga teng bo'lib, samaradorlikni yanada oshirish imkoniyatlari, asosan, boshqaruv va texnologik omillar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. O'rtacha masshtab samaradorligi esa **0,935** ni tashkil etdi. Bu esa faoliyat ko'lamining mutanosibligi umumiy samaradorlikni yanada oshirishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillardan biri ekanligini anglatadi.

CCR modeli bo'yicha **14** ta tumandan beshtasi — **Koson, Kitob, Muborak, Nishon va Kasbi** tumanlari to'liq samarali ($\theta = 1$) deb topildi. Mazkur tumanlar samaradorlik chegarasini shakllantiradi va boshqa hududlar uchun etalon vazifasini bajaradi. Koson tumani eng katta mahsulot ishlab chiqarish hajmiga (**5108,1 mlrd so'm**) mo'tadil resurs sarfi bilan erishib, mahsulot ko'lamini hamda samaradorlik bo'yicha yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Kitob tumani eng kam investitsiya (**143,0 mlrd so'm**) evaziga **4102,3 mlrd so'mlik** mahsulot ishlab chiqarib, investitsiya unumdorligi bo'yicha yuqori natijani namoyon etgan. Mazkur tumanda har bir so'm investitsiyaga **28,7 so'm** mahsulot to'g'ri keladi, viloyat bo'yicha ushbu ko'rsatkich esa o'rtacha **9–12 so'mni** tashkil etadi. Muborak tumani **2,6 ming** nafar band xodim bilan **2505,9 mlrd so'mlik** mahsulot ishlab chiqarib, mehnat unumdorligi (bir xodimga qariyb **964 mln so'm**) bo'yicha yuqori natijaga erishgan. Nishon va Kasbi tumanlari esa energiya sarfining past darajasi hamda ishlab chiqarish omillarining mutanosib uyg'unligi hisobiga samaradorlik chegarasiga erishgan.

BCC modeli bo'yicha samarali tumanlar qatoriga qo'shimcha ravishda **Mirishkor** tumani ham kiradi ($\theta_{BCC} = 1,000$). Ushbu tumanda **CCR** bo'yicha samaradorlik **0,880** ga teng bo'lib, samaradorlikni yanada oshirish imkoniyatlari asosan masshtab omili bilan bog'liq ($SE = 0,880$; $\Sigma\lambda = 1,361 > 1$, ya'ni kamayuvchi qaytim zonasi). Bu holat Mirishkor tumanida ichki boshqaruv nuqtai nazaridan o'z faoliyat guruhida ilg'or amaliyot shakllanganini, shu bilan birga, faoliyat ko'lamini optimal darajadan yuqoriroq bo'lgani sababli qo'shimcha resurslardan foydalanish samarasi nisbatan pasayib borayotganini ko'rsatadi.

Nisbatan past samaradorlik ko'rsatkichlari **Dehqonobod** ($\theta_{CCR} = 0,412$) va **Chiroqchi** ($\theta_{CCR} = 0,436$) tumanlarida kuzatildi. Dehqonobod tumanida mavjud natija sof texnik samaradorlik (**0,659**) hamda masshtab samaradorligi (**0,625**) bilan bog'liq bo'lib, tuman nisbatan kichik ishlab chiqarish hajmida (**2135,0 mlrd so'm**) yuqoriroq investitsiya (**389,0 mlrd so'm**) va energiya sarfiga ega. Tuman masshtabga nisbatan o'suvchi qaytim zonasida joylashganligi sababli, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish orqali samaradorlikni yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Chiroqchi tumanida esa investitsiyalar hajmi viloyat bo'yicha eng yuqori (**695,0 mlrd so'm**) bo'lishiga qaramay, mahsulot ishlab chiqarish hajmi (**3340,3 mlrd so'm**) o'rtacha darajada shakllangan.

2 Manba: muallif hisob-kitoblari (chiziqli dasturlash masalalari yechimlari asosida).



Natijada investitsiya unumdorligi **4,8 so'mni** tashkil etib, bu ko'rsatkich Kitob tumaniga nisbatan ancha past darajada qayd etilgan.

Masshtab qaytimi tahlili tumanlarni uch guruhga ajratish imkonini berdi. **G'uzor, Dehqonobod, Chiroqchi, Shahrisabz va Yakkabog'** tumanlari o'suvchi qaytim (**IRS**) zonasida joylashgan bo'lib, ularda agrotadbirkorlik faoliyati ko'lamini kengaytirish, kooperatsiya va klasterlashuvni chuqurlashtirish hamda ishlab chiqarishni yiriklashtirish qo'shimcha samaradorlikni ta'minlash imkonini beradi. **Qamashi, Qarshi, Mirishkor va Ko'kdala** tumanlari kamayuvchi qaytim (**DRS**) zonasida faoliyat yuritmoqda. Mazkur hududlarda mavjud resurslardan foydalanish sifatini yanada oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini optimal darajada boshqarish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Etalon sifatida e'tirof etilgan beshta tuman esa o'zgarmas qaytim (**CRS**) zonasida joylashgan bo'lib, ular optimal faoliyat ko'lamida ishlayotganini ko'rsatadi.

DEA uslubiylatining muhim afzalliklaridan biri har bir samaradorligi nisbatan past tuman uchun uning etalon (tayanch) tumanlarini aniqlash imkoniyatini berishidir. Etalonlar **CCR** masalasidagi musbat λ_j koeffitsientlariga ega tumanlar bo'lib, samaradorligi nisbatan past tuman uchun maqsadli ko'rsatkichlar aynan ushbu tumanlar ko'rsatkichlarining chiziqli kombinatsiyasi asosida shakllantiriladi. Tahlil natijalari **3-jadvalda** keltirilgan.

3-jadval

Samaradorligi nisbatan past tumanlar uchun etalon tumanlar va intensivlik koeffitsientlari (CCR modeli)³

Samarasiz tuman	Etalon tumanlar (λ_j koeffitsientlari)	Resurslarni tejash zaxirasi, %
G'uzor	Kitob (0,561); Muborak (0,388)	37,1
Dehqonobod	Kitob (0,114); Nishon (0,483)	58,8
Qamashi	Kitob (0,604); Muborak (0,386); Kasbi (0,302)	31,5
Qarshi	Kitob (0,544); Muborak (0,173); Kasbi (0,315)	19,5
Mirishkor	Kitob (0,148); Muborak (1,020); Kasbi (0,194)	12,0
Ko'kdala	Kitob (0,160); Muborak (0,232); Kasbi (0,654)	25,5
Chiroqchi	Kitob (0,032); Muborak (0,185); Nishon (0,251); Kasbi (0,442)	56,4
Shahrisabz	Kitob (0,224); Kasbi (0,761)	16,1
Yakkabog'	Kitob (0,188); Kasbi (0,629)	29,8

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, **Kitob** tumani samaradorligi nisbatan past bo'lgan to'qqizta tumanning barchasi uchun etalonlar tarkibiga kirgan va shu tariqa viloyatda eng ko'p murojaat qilinadigan namunaviy hudud sifatida namoyon bo'lgan. **Kasbi** tumani oltita, **Muborak** tumani beshta, **Nishon** tumani esa ikkita tuman uchun tayanch vazifasini bajaradi. Mazkur natija amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Samaradorligi nisbatan past tumanlar agrotadbirkorlikni tashkil etish, investitsiyalarni yo'naltirish hamda resurslarni taqsimlash bo'yicha ilg'or tajribalarni, avvalo, o'z etalon tumanlari misolida o'rganishlari maqsadga muvofiq, chunki ular ishlab chiqarish tuzilmasi jihatidan o'zaro eng yaqin hududlar hisoblanadi.

4-jadval

Samaradorligi nisbatan past tumanlar kirimlarining joriy va maqsadli qiymatlari (CCR modeli)⁴

Tumanlar	Investitsiyalar, mlrd so'm		Energiya sarfi, ming kVt·soat		Bandlar soni, ming kishi	
	joriy	maqsadli	joriy	maqsadli	joriy	maqsadli
G'uzor	335,0	210,8	0,132	0,060	22,9	14,4
Dehqonobod	389,0	160,3	0,082	0,023	17,4	7,2
Qamashi	477,0	326,7	0,094	0,064	30,3	20,8
Qarshi	312,0	251,0	0,068	0,055	23,6	19,0
Mirishkor	495,0	435,5	0,038	0,033	10,9	9,6
Ko'kdala	456,0	339,6	0,027	0,020	21,4	15,9
Chiroqchi	695,0	302,8	0,031	0,014	26,0	11,3
Shahrisabz	369,0	309,7	0,026	0,022	23,9	18,7
Yakkabog'	365,0	256,4	0,026	0,018	25,7	15,6

Kirimga yo'naltirilgan model har bir samaradorligi nisbatan past tuman uchun maqsadli (optimal) kirim qiymatlarini ham hisoblab beradi. Maqsadli qiymat etalon tumanlar ko'rsatkichlarining λ koeffitsientlari bilan tortilgan yig'indisi sifatida aniqlanadi hamda joriy mahsulot hajmini kamaytirmagan holda yetarli bo'lgan resurslar miqdorini ifodalaydi. Joriy va maqsadli qiymatlarning taqqoslanishi **4-jadvalda** aks ettirilgan.

3 Manba: muallif hisob-kitoblari.

4 Manba: muallif hisob-kitoblari.



4-jadval ma'lumotlari resurslardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Jumladan, Chiroqchi tumanida joriy mahsulot hajmini saqlab qolgan holda investitsiyalar sarfini **695,0 mlrd so'mdan 302,8 mlrd so'mgacha**, ya'ni **56,4 foizga** optimallashtirish nazariy jihatdan mumkin. Bu holat samaradorlik chegarasidagi tumanlar tajribasiga tayangan holda investitsiya loyihalarini tanlash va amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkoniyatini ko'rsatadi. Dehqonobod tumanida barcha kirimlar bo'yicha **58,8 foizlik** proporsional optimallashtirish imkoniyati aniqlangan. Viloyat miqyosida qaralganda, barcha samaradorligi nisbatan past tumanlar etalon darajaga yaqinlashgan taqdirda, qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning jami hajmini joriy mahsulot hajmini saqlagan holda qariyb **1,3 trln so'mga (24,2 foizga)** tejash yoki ushbu mablag'larni qo'shimcha mahsulot yaratishga qayta yo'naltirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Mehnat resurslari bo'yicha hisoblangan maqsadli qiymatlar xodimlarni qisqartirish zarurati sifatida emas, balki mehnat unumdorligini oshirish hamda mavjud mehnat salohiyatini qishloq hududlaridagi qayta ishlash, xizmat ko'rsatish va agrologistika kabi qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan yo'nalishlarga samarali yo'naltirish imkoniyati sifatida talqin qilinishi lozim. Model natijalariga ko'ra, samaradorligi nisbatan past tumanlarda jami **69,6 ming kishi** miqdoridagi mehnat resursini agrar zanjirning yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi bo'g'inlariga bosqichma-bosqich yo'naltirish hududlarda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni yanada oshirish imkonini beradi.

Shuningdek, ayrim tumanlarda proporsional optimallashtirishdan tashqari chiqimlar bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar (**output slacks**) ham aniqlangan. Jumladan, **Ko'kdala** va **Shahrisabz** tumanlarida maqsadli kirimlar doirasida mahsulot ishlab chiqarish hajmini mos ravishda **1265** va **1199 mlrd so'mga**, **Mirishkor** tumanida esa **476 mlrd so'mga** oshirish imkoniyati mavjud. **Dehqonobod** tumanida qayta ishlash hajmini **49,1 mlrd so'mdan 70,9 mlrd so'mgacha** yetkazish salohiyati aniqlangan. Bu holat tumanda xomashyoni qayta ishlash zanjirini yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, omillar sarfi va mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik tahlili shuni tasdiqlaydiki, viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi resurslar miqdorini ko'paytirishdan ko'ra, ularni samarali tumanlar tajribasi asosida oqilona taqsimlash va boshqarishga ko'proq bog'liqdir. Jumladan, investitsiyalar hajmi yuqori bo'lgan **Chiroqchi** va **Mirishkor** tumanlari mahsulot ishlab chiqarish hajmi bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallamagan bo'lsa, nisbatan kam investitsiya jalb etgan **Kitob** tumani investitsiyalardan foydalanish samaradorligi bo'yicha eng yuqori natijani namoyon etgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot agrotadbirkorlikda omillar sarfining qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini hududiy baholashda DEA uslubiylatining CCR va BCC modellari samarali hamda axborot sig'imi yuqori bo'lgan vosita ekanligini ko'rsatdi. Qashqadaryo viloyatining 14 ta tumani ma'lumotlari asosida quyidagi asosiy ilmiy natijalar olindi.

Birinchidan, viloyat tumanlarining o'rtacha texnik samaradorligi CCR modeli bo'yicha 0,795 ni, BCC modeli bo'yicha 0,843 ni, masshtab samaradorligi esa 0,935 ni tashkil etdi. Demak, mavjud mahsulot hajmini saqlab qolgan holda resurslar sarfini o'rtacha beshdan bir qismga optimallashtirish imkoniyati mavjud bo'lib, samaradorlikni yanada oshirish imkoniyatlari, asosan, boshqaruv va texnologik omillar bilan bog'liqdir. Ikkinchidan, Koson, Kitob, Muborak, Nishon va Kasbi tumanlari har ikki model bo'yicha to'liq samarali deb topildi. Kitob tumani barcha samaradorligi nisbatan past tumanlar uchun etalon sifatida xizmat qilib, investitsiya unumdorligi bo'yicha yetakchi natijani namoyon etdi. Uchinchidan, nisbatan past samaradorlik ko'rsatkichlari Dehqonobod va Chiroqchi tumanlarida kuzatildi. Mazkur hududlarda resurslardan foydalanishni mos ravishda 58,8 va 56,4 foiz darajasida optimallashtirish imkoniyati aniqlandi. To'rtinchidan, tumanlarning masshtab qaytimi bo'yicha guruhlanishi hududlar xususiyatidan kelib chiqqan holda differensial yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi. Jumladan, IRS zonasidagi tumanlarda faoliyat ko'lamini kengaytirish, DRS zonasidagi tumanlarda esa intensiv omillarga ustuvor e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Olingan natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, viloyatda qishloq xo'jaligiga yo'naltiriladigan davlat va xususiy investitsiyalarni taqsimlashda tumanlarning DEA asosidagi samaradorlik reytingini hisobga olish, samaradorligi nisbatan past tumanlarda esa mablag' ajratishni loyihalarning kutilayotgan unumdorligi bo'yicha puxta ekspertizadan o'tkazish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu, ayniqsa, investitsiyalar hajmi yuqori bo'lgan Chiroqchi, Mirishkor va Ko'kdala tumanlarida investitsiya samaradorligini yanada oshirish nuqtai nazaridan muhimdir. Ikkinchidan, etalon tumanlar, avvalo, Kitob, Kasbi va Muborak tumanlari tajribasini o'rganish hamda ommalashtirish mexanizmlarini — tumanlararo o'quv-amaliy seminarlar, namunaviy xo'jaliklar bazasida stajirovkalar va raqamli bilimlar platformalarini — yo'lga qo'yish zarur. Uchinchidan, energiya sig'imi yuqori bo'lgan G'uzor, Kitob va Qamashi tumanlarida energiya auditini o'tkazish, suv va energiyani tejovchi texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish, quyosh panellari, energiya tejamkor nasos



stansiyalari) joriy etishni imtiyozli kreditlash orqali rag'batlantirish maqsadga muvofiq. To'rtinchidan, o'suvchi qaytim zonasidagi Dehqonobod, Chiroqchi, Shahrisabz, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida agroklastlar hamda kooperatsiya aloqalarini chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, kamayuvchi qaytim zonasidagi tumanlarda esa qo'shimcha resurslarni jalb etish bilan bir qatorda mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga e'tibor qaratish lozim. Beshinchidan, qayta ishlash hajmi nisbatan past bo'lgan tumanlarda, avvalo, Dehqonobod tumanida xomashyoni chuqur qayta ishlash quvvatlarini rivojlantirish orqali agrar zanjirda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni oshirish hamda mavjud mehnat resurslarini ushbu yo'nalishlarga bosqichma-bosqich yo'naltirish tavsiya etiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi viloyat tumanlari kesimida agrotadbirkorlikda omillar sarfi samaradorligining CCR va BCC modellari asosidagi kompleks hududiy bahosi ilk bor amalga oshirilganligi, etalon tumanlar tizimi hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlarining miqdoriy baholanganligi bilan belgilanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda tahlilni bir necha yillik ma'lumotlar asosida Malmkvist unumdorlik indeksi yordamida dinamik ko'rinishda amalga oshirish, shuningdek, samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarni ikkinchi bosqichda ekonometrik modellar (Tobit-regressiya) yordamida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF–5853-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4567334>
2. Farrell M.J. *The Measurement of Productive Efficiency* // *Journal of the Royal Statistical Society. Series A.* – 1957. – Vol. 120. – No. 3. – P. 253–290.
3. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. *Measuring the Efficiency of Decision Making Units* // *European Journal of Operational Research.* – 1978. – Vol. 2. – No. 6. – P. 429–444.
4. Banker R.D., Charnes A., Cooper W.W. *Some Models for Estimating Technical and Scale Inefficiencies in Data Envelopment Analysis* // *Management Science.* – 1984. – Vol. 30. – No. 9. – P. 1078–1092.
5. Coelli T.J., Rao D.S.P., O'Donnell C.J., Battese G.E. *An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis.* – 2nd ed. – New York: Springer, 2005. – 349 p.
6. Cooper W.W., Seiford L.M., Tone K. *Data Envelopment Analysis: A Comprehensive Text with Models, Applications, References and DEA-Solver Software.* – 2nd ed. – New York: Springer, 2007. – 490 p.
7. Färe R., Grosskopf S., Lovell C.A.K. *Production Frontiers.* – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. – 296 p.
8. Emrouznejad A., Yang G. *A Survey and Analysis of the First 40 Years of Scholarly Literature in DEA: 1978–2016* // *Socio-Economic Planning Sciences.* – 2018. – Vol. 61. – P. 4–8.
9. Latruffe L. *Competitiveness, Productivity and Efficiency in the Agricultural and Agri-Food Sectors* // *OECD Food, Agriculture and Fisheries Papers.* – 2010. – No. 30. – 63 p.
10. Toma E., Dobre C., Dona I., Cofas E. *DEA Applicability in Assessment of Agriculture Efficiency on Areas with Similar Geographical Patterns* // *Agriculture and Agricultural Science Procedia.* – 2015. – Vol. 6. – P. 704–711.
11. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>